

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
RAQAMLI MULTIMEDIA AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH VA
YARATISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN RAQAMLI MULTIMEDIA AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH VA YARATISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Raqamli multimedia axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Raqamli multimedia axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi

- 1.Raqamli axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi;
- 2.Raqamli multimedia axborotlar;
- 3.Zamonaviy raqamli texnologiyalar;
- 4.Bulutli hisoblash tarmoqlari;
- 5.Raqamli multimedia axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi;
- 6.Media va axborot savodxonligi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Raqamli axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi	Raqamli axborot va matnni qayta ishlash texnologiyasi, raqamli multimedia axborotlar, axborot va uning turlari, raqamli texnologiyalar, axborotli jarayonlar, axborotni kodlash, axborot o'lovch birliklari, axborotning kompyuterda tasvirlanishi, axborot hajmini o'lovch, matnli, grafik, audio va video axborotlarni kodlash va ularga doir topshiriqlarni bajara olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
2	Raqamli multimedia axborotlar	Raqamli multimedia axborotlar, axborot va uning turlari, raqamli texnologiyalar, axborotli jarayonlar, axborotni kodlash, axborot o'lovch birliklari, axborotning kompyuterda tasvirlanishi, axborot hajmini o'lovch va ularga doir topshiriqlarni bajara olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 ta
3	Zamonaviy raqamli texnologiyalar	Zamonaviy raqamli texnologiyalar - SMMni internet tizimida harakatlantirish; - CMS (content management systems – kontentning boshqarish tizimlari) haqida; - CMS (WordPress, Joomla, Drupal) platformalari; - LMS (Learning management systems – ta'limni boshqaruv tizimlari) haqida; va ularga doir topshiriqlarni bajara olish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	9 ta
4	Bulutli hisoblash tarmoqlari	Bulutli hisoblash tarmoqlari ma'lumotlarni uzatish protokollari, Ethernet, TCP/IP va IEEE, Tarmoq qurilmalari, elektron pochta, internetda ishlash asoslarini o'rganish, kompyuter tarmoqlari, tarmoq komponentlari va arxitekturasi, tarmoqlarning ishlash prinsipi. IP-manzillash, tarmoq maskasi, tarmoq manzilini aniqlash, internetda ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6 ta
5	Raqamli multimedia axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi	Raqamli multimedia axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi, Raqamli multimedia axborotlar, axborot va uning turlari, raqamli texnologiyalar, axborotli jarayonlar ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	5 ta
6	Media va axborot savodxonligi	Multimedia ilovalar yaratish texnologiyasi, Ma'lumotlar uzatish ilovalari, Mobil ilovalar, JavaScript dasturiy tili Formalar yaratish va shablonlarni ishlatish, birlashtirish operatorlari bilan ishlash va unda ishlash asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %

2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Informatika va axborot texnologiyalari. 5-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. “Cambridge University Press”. 2023

2. Informatika va axborot texnologiyalari. 6-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. “Cambridge University Press”. 2023

3. Informatika va axborot texnologiyalari. 7-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. “Cambridge University Press”. 2023

4. Informatika va axborot texnologiyalari. 8-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. “Cambridge University Press”. 2023

5. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf. V.Wright, D.Taylor. "Cambridge University Press". 2023
6. Informatika va axborot texnologiyalari. 10-11-sinf. P.Long, S.Lawrey, V.Ellis. "Cambridge University Press". 2023
7. Informatika va axborot texnologiyalari. 5-sinf. D.Kamaliddinova. "Nashriyot uyi tasvir". 2020
8. Informatika va axborot texnologiyalari. 6-sinf. F.Fayziyeva, D.Sayfurov va b. "Respublika ta'lim markazi". 2021
9. Informatika va axborot texnologiyalari. 7-sinf. F.Fayziyeva, D.Sayfurov va b. "Respublika ta'lim markazi". 2021
10. Informatika va axborot texnologiyalari. 8-sinf. M.Fayziyeva. "Nashriyot uyi tasvir". 2020
11. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf. M.Fayziyeva. "Nashriyot uyi tasvir". 2020
12. Informatika va axborot texnologiyalari. 10-sinf. F.Fayziyeva, D.Sayfurov va b. "Respublika ta'lim markazi". 2021
13. Informatika va axborot texnologiyalari. 11-sinf. N.Xaytullayeva, F.Fayziyeva va b. "Respublika ta'lim markazi". 2021.
14. Informatika va axborot texnologiyalari. O'rta ta'lim muassasalarining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik 10-sinf. Taylaqov N. Axmedov A. Paradyeva M. Abdug'aniyev A. 1-nashri. Toshkent 2017 yil.
15. Informatika va axborot texnologiyalari. O'rta ta'lim muassasalarining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik 11-sinf. Taylaqov N. Axmedov A. Paradyeva M. Abdug'aniyev A. 1-nashri. Toshkent 2017 yil.
16. Sh.B.Sayfullayev. Axborot xavfsizligi. Toshkent 2021
17. Axborot texnologiyalari asoslari. Mirzayev A.E. Xalilov S.p, Naim N.A. Toshkent -2021
18. Kompyuter tizimlari va tarmoqlari. A.A.Kaxxarov, Yu.Sh Avazov Toshkent 2022.
19. Gaipnazarov T.S, Irgasheva D.Y Ma'lumotlar ombori. Toshkent-2014,
20. G.Rahimova; G. Jo'raqulova. Ma'lumotlar bazsini boshqarish tizimlari. Toshkent -2024 yil.
21. Kompyuter tarmoqlarini administratorlash. X.Djumanov. K.T.Abdurashidova. S.Botirov Zamin Nashr -2021
22. Raqamli multimedia axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi F.F. RAJABOV, N.S. ATADJANOVA, N.A.IRMUXAMEDOVA. Toshkent-2022 yil

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*